


## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

### I BO'LIM. TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Korxona va tashkilotlar soni (2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	<b>62 667</b>	111,3 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	<b>44 876</b>	87,5 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022-yilda)	<b>1 937</b>	102,0 %

#### Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiyl tavsifi


**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



*Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar,  
ming birlik*



*Xususiy korxonalar,  
ming birlik*




### **Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## **Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiyl tavsifi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni  
(1-aprel holatiga ko'ra)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**

### Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



#### Aksiyadorlik jamiyatni:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyatni hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, ming birlikda)




### Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
*(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)*



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
*(2023-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)*




2023-yilning yanvar-mart oylarida 1937 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Shundan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1627 tani, xususiy korxonalar 67 tani, oilaviy korxonalar 183 tani, muassasalar 5 tani va boshqalar 55 tani tashkil etdi.

## Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi  
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra)**




**Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni  
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 7 661 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,6 %ga kamaydi. Ishlab chiqarish sanoati (jami sanoatdagi ulushi 93,2 foiz), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (jami sanoatdagi ulushi 4,3 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (jami sanoatdagi ulushi 1,7 foiz) va elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (jami sanoatdagi ulushi 0,5 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona  
va tashkilotlar soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 4 122 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 10,6 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 23,7 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,4 %), korxonalari sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringa 0,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,2 %) kamayishidir.

**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 13 846 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,1 %ga oshdi.

Savdo sohasining yo'naliishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'naliishi 65,8 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 10,3 foizga kamaygan;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'naliishida 27,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 0,4 foizga kamaygan;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'naliishida 6,6 foizga kamaygan.



**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasi

795



- Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

24



- Yashah uchun joy bilan ta'minlagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

23



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



329

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 722

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 3 051 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 %ga oshdi.


Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib,

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,2 foiz ulushini tashkil etdi

Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 4,0 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 0,6 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 35,1 foizini tashkil etdi.

*Kino-videofilmlar,  
televizion dasturlar,  
fonogrammalar va  
musiqali  
yozuvlarni ishlab  
chiqish*

**26**

*Dasturlar yaratish bo'yicha  
faoliyat va teleko'rsatuv va  
radioeshittirish*

**4**

*Kompyuter dasturlashtirish,  
maslahat berish va boshqa  
yordamchi xizmatlar*

**228**

**93**

*Noshirlik*

**190**


*Aloqa*

**105**

*Axborot xizmati  
ko'rsatish sohasidagi  
faoliyat*

## **Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Oilaviy korxonalar soni**  
*(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 5 760 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 700 taga yoki 13,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 928 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 670 taga yoki 17,0 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023-yilning yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 183 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 13,6 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
*(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 42 333 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 326 taga yoki 14,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 30 215 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 003 taga yoki 12,9%ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 627 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129 taga yoki 8,6 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




**Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**

**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**


**II BO'LIM. TOSHKENT VILOYATIDAGI  
XORIJY KAPITAL ISHTIROKIDAGI  
KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 1 793 tani tashkil etib, ulardan 1 396 tasi yoki 77,8 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 86 taga yoki 6,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 57 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)**




**Toshkent viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**

Mamlakalar	Jami	shundan:
		qo'shma korxona xorijiy korxona
1	Rossiya Federatsiyasi	158 48 110
2	Qozog'iston Respublikasi	82 20 62
3	Tojikiston Respublikasi	18 3 15
4	Ukraina Respublikasi	16 7 9
5	Qirg'iz Respublikasi	9 2 7
6	Ozarbayjon Respublikasi	9 2 7
7	Belarus Respublikasi	10 5 5
8	Armaniston Respublikasi	7 1 6
9	Latviya Respublikasi	4 1 3
10	Moldova Respublikasi	5 2 3

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)*

	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Jami</b>	<b>913</b>	<b>1 217</b>	<b>1 335</b>	<b>1 482</b>	<b>1 396</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	80	116	128	134	102
sanoat	558	700	701	743	664
qurilish	26	52	70	79	66
savdo	139	195	250	295	342
tashish va saqlash	19	18	27	28	32
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	26	28	32	28
axborot va aloqa	1	6	3	10	15
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11	12	16	15	12
boshqa turlar	65	92	112	146	135

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiyl tavsifi**

**III BO'LIM. HUDUDLAR BO'YICHA KORXONA  
VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT**

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni  
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo‘shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1396</b>	<b>572</b>	<b>824</b>
Oqqo‘rg‘on tumani	18	5	13
Ohangaron tumani	72	24	48
Bekobod tumani	3	2	1
Bo‘stonliq tumani	52	26	26
Bo‘ka tumani	13	5	8
Quyi Chirchiq tumani	44	20	24
Zangiota tumani	218	65	153
Yuqori Chirchiq tumani	102	45	57
Qibray tumani	144	62	82
Parkent tumani	27	10	17
Piskent tumani	26	10	16
O‘rta Chirchiq tumani	80	26	54
Chinoz tumani	25	11	14
Yangiyo‘l tumani	76	28	48
Toshkent tumani	75	38	37
Nurafshon shahri	57	15	42
Olmaliq shahri	54	20	34
Angren shahri	82	50	32
Bekobod shahri	22	14	8
Ohangaron shahri	52	26	26
Chirchiq shahri	101	53	48
Yangiyo‘l shahri	53	17	36

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
hududlar kesimida soni  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Zangiota tumanida 12,9 %, Qibray tumanida 9,5 %, Toshkent tumanida 7,1 %, Angren shahrida 5,7 %, Yangiyo'l tumanida 5,0 %, Chirchiq shahrida 6,5 %, Yuqori Chirchiq tumanida 4,9 %, O'rta Chirchiq tumanida 4,1 %, Olmaliq shahrida 4,2 %, Parkent tumanida 4,6 %, Bo'stonliq tumanida 4,1 %, Yangiyo'l shahrida 3,4 %, Quyi Chirchiq tumanida 2,8 %, Bo'ka tumanida 3,2 %, Bekobod shahrida 3,2 %, Ohangaron tumanida 3,0 %, Piskent tumanida 2,6 %, Nurafshon shahrida 2,4 %, Ohangaron shahrida 2,8 %, Chinoz tumanida 2,7 %, Bekobod tumanida 2,9 % va Oqqa'rg'on tumanida 2,2 %ni tashkil etadi.

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi  
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi %da)**



2022-2026 yillarda rivojlanishning yo'nalishi bo'yicha "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish. sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish muhim hisoblanadi.


**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni  
(2022-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)**



2023-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida ko'rildigani bo'lsa, asosan O'rta Chirchiq (10,3 %), Oqqo'rg'on (4,9 %), Bo'stonliq (4,9 %), Yuqori Chirchiq (6,0 %), Zangiota (6,5 %), Yangiyo'l (3,8%), Parkent (12,5), Qibray (7,6 %), Toshkent (6,5 %), Chinoz (1,0 %) tumanlari va Nurafshon (5,4 %) shahri yuqori ulushga ega.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona  
va mikrofirmalar soni  
(2022-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)**



**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnomasini, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faoliyik darajasi** - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

**Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra** (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiylaysi tavsifi**